

# **Qoraqalpog'iston Respublikasida xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni, ular o'rtasida o'z joniga qasd yoki suiqasd qilish holatlarni taxlil etish, asl sabablarini o'rganish, ularni bandligini ta'minlash borasida hamkorlikda amalga oshirilgan i**

## **MA'LUMOT**

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 1 800 200 nafar aholi yashayotgan bo'lsa, ularning 901 554 nafarini xotin-qizlar, 632 214 nafari voyaga etmaganlar, shundan 319 848 nafari qizlarni tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jami tibbiyot sohasida 24395 nafar, iqtisodiyot sohasida 2852 nafar, ta'lim sohasida 49695 nafar xotin-qizlar mehnat qilmoqda.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 ming 250 nafardan ziyod xotin-qiz turli rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga 4 nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga 12 nafar, shahar va tuman Kengashlariga 85 nafar xotin-qiz deputat etib saylangani ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilayotgan ulkan e'tiborning amaliy ifodasidir.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida ilm-fan taraqqiyoti yo'lida samarali mehnat qilayotgan 168 nafar olim ayollar, 5 mingdan ortiq tadbirkor ayollar, 200 ga yaqin hunarmand ayollar, 500 ga yaqin fermer ayollar, 397 nafar diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari mamlakatimiz ravnaqi yo'lida o'zlarining hissalarini qo'shmoqda.

2016-2017 o'quv yilida 93 ta kasb-xunar kollejlarni jami 11828 nafar bitiruvchi qizlardan, bugungi kunga kelib 3863 nafari qizlar ya'ni 35,1% ining bandligi ta'minlangan. Shundan, 347 nafar qizlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan.

Bundan tashqari, 2017 yil 9 oyi davomida tijorat banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga o'z biznesini boshlash uchun 2014-2017 yillarda kasb-hunar kollejlarni bitirgan qizlarning 930 nafari uchun 9,3 mlrd so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratilgan bo'lib, shundan 2016-2017 yillarda kasb-hunar kollejlarni bitirgan 377 nafar qizlar uchun 4,4 mlrd.so'm ajratilib, bugungi kunda bu qizlarimiz ham o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlab yuborgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 2017 yil 30 yanvar kuni 09-01/05-son bilan "2017 yil davomida xotin-qizlar orasida ularning huquqiy bilimlarini oshirish, diniy ekstremizm, missionerlikning hamda har turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbuzarlik, erta nikoh qurish, OITS kasalligi va o'z joniga qasd qilishning oldini olish, odam savdosiga qarshi kurashish, hamda tuy marakalarni tartibli, isrobgarchiliksiz o'tkazishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish bo'yicha Manzilli Rejasi" tasdiqlanib, mazkur manzilli Reja bo'yicha joylarda Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi vazirliklari, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi, "Mahalla" fondi bilan hamkorlikda vaqtincha ihsiz ayollar va uy bekalari bilan diniy ekstremistik oqim a'zolari va missionerlar faoliyati ta'siriga tushib qolishlarining oldini olishga qaratilgan 400 ta targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi, Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasining shahar, tumanlaridagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixolog o'qituvchilarning voyaga etmaganlar o'rtasida salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlar jadvali tasdiqlanib, mazkur rejaga asosan joriy yilning 1 martdan 4 aprel kuniga qadar barcha shahar, tumanlarda seminarlar tashkil etilib, 1100 ta'lim muassasalari psixologlari va mahalla maslahatchilari ishtirok etdi.

Yuqorida belgilangan chora-tadbirlar asosida amalga oshirilgan targ'ibotlar va ro'yxatga olingan xotin-qizlar va ularga ko'rsatilgan amaliy yordamlar, jumladan, bandligini ta'minlash, nafaqalarini tiklash, tadbirkorlikga jalb etish, farzandlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish kabi yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan ishlar tufayli o'tgan yilning shu davriga qaraganda xotin-qizlar orasida salbiy-holatlar kamaydi.

Jumladan, xonadonlarga kirib borish, ularning oilaviy ahvolini o'rganish natijasida aniqlangan muammolarni hamkorlikda bartaraf etish tizimi yaratildi. Qaynonalar Kengashi va yarashtirish komissiyalari tomonidan olib borilayotgan ishlar natijasida:

- 431 ta ajrashish yoqasida turgan oila tiklandi

Misol uchun, Chimboy tumani Temir jol guzari MFYda istiqomat qiluvchi fuqarolar Urazova Xalida va Duysenbaev Jusipalilar kelishmovchiliklar sababli ajrashmoqchi bo'lib turganida mahalladagi Yarashtirish komissiyasi a'zolarining olib borgan tushuntirish ishlari natijasida joriy yil 3 may kuni ikki juft yarashtirildi.

Shuningdek, Ellikqal'a tumani Navbahor MFYda istiqomat qiluvchi Durdiev Jamoladdin va Osmiqova Tovuslarning oilasidagi kelishmovchiliklar sababli ajrashmoqchi bo'lgan. Mahallasidagi Yarashtirish komissiyasining olib borgan tushuntirish ishlari natijasida oila yarashtirildi.

- 25 ta aliment o'ndirildi;

Masalan, Amudaryo tumani Quyik ko'pir OFYda yashovchi Otajonova Gulasalga sobiq turmush o'rtog'i Almonov Xamzadan mahalla xodimlari yordamida 1 nafar farzandiga har oyda 150 ming so'm aliment pulini undirishda yordam berilmoqda.

Yoki Xo'jayli tumani Tinchlik MFYda istiqomat qiluvchi fuqaro Ishamuratova Tolg'anayga sobiq turmush o'rtog'i Jumamuratov Amangeldidan ularning 4 farzandi uchun 3,5 mln.so'm miqdorda aliment pulini undirishda yordam ko'rsatildi.

- 125 nafar chetga ketmoqchi bo'lgan ayollarning 96 tasi qaytarildi;

- 24 ta xotin-qizlar jinoyatining oldi olindi

Misol uchun, Amudaryo tumani Arnabo'yi MFYda yashovchi fuqaro Yuldasheva Tazagul o'z kelini Raximova Sharofat bilan urushib, biri biriga tana jarohatini etkazgan. Sudga ariza bergan. Lekin tuman Xotin-qizlar qo'mitasi raisi, IIB mas'ul xodimi va "Nuroniy" fondining tuman bo'limi boshlig'i tomonidan olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida ikki ayol yarashtirildi va ariza qaytarildi.

Shuningdek, Sho'manoy tumani Begjap OFYda yashovchi Jumanova Denegulni 2017 yil 11 avgust kuni uning turmush o'rtog'i Fayzimov Muratbay mast holatda urgan. D.Jumanova uni qaytarib urib, ikkilasi o'rtasida janjal boshlangan paytda mahalla faollari aralashib, ikkalasi bilan tushuntirish ishlarini olib borish natijasida jinoyat qilib qo'yish holatining oldi olindi. Hozirgi kunda oila tinch va ahil yashamoqda.

- 12 nafar xotin-qizlar o'rtasida o'z joniga qasd holatlarining oldi olindi.

Misol uchun Chimboy tumani Berdaq MFYda istiqomat qiluvchi 1999 yili tug'ilgan Bazarbaeva Nasiba tanishlaridan olgan qarzini o'z vaqtida qaytara olmaganligi sababli o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan. Lekin uning qo'shnilari bundan xabar topib qolib, mahalla faollari qiz bilan darhol tushuntirish ishlarini olib borishi natijasida o'z joniga qasd qilish holatining oldi olindi.

To'rtko'l tumani Sho'rxon OFYda istiqomat qiluvchi fuqaro Arzieva Nodira eri qamoqda bo'lganligi sababli 3 nafar farzandi bilan uysiz qolgan. Qayinota-onasi bilan janjal qilib, tuman Xotin-qizlar qo'mitasiga o'zi joniga qasd qilishini aytib murojaat qilgan. Tuman Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan fuqaro bilan tushuntirish ishlari olib borilib, o'z jonigina qasd qilish holatining oldi olingan. Bundan tashqari qo'mita yordamida ushbu fuqaroga erining nomidagi uyi qonuniy ravishda uning nomiga o'tkazib berilgan. Fuqaro 17-sonli umumta'lim maktabiga farrosh etib ishga joylashtirilgan.

- 17 ta foxishaxonalar faoliyati to'xtatildi;

- Respublikada mavjud 405 ta mahallalarning 44 tasida o'tgan davr mobaynida salbiy holatlar (jinoyat, o'z joniga qasd, ajrim v.h) sodir bo'lmadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2017 yil 10 oy davomida xotin-qizlar tomonidan jami 247 ta jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111 taga kamaygan (2016 y. - 358 ta). Jumladan, Nukus shahrida 78 ta bo'lib, 23 taga (2016 y. - 101 ta), To'rtko'l tumanida 25 ta bo'lib, 28 taga (2016 y. - 53 ta), Qo'ng'iro't tumanida 24 ta bo'lib, 18 taga (2016 y. - 42 ta), Xo'jayli tumanida 22 ta bo'lib, 9 taga (2016 y. - 31 ta), Beruniy tumanida 18 ta bo'lib, 1 taga (2016 y. - 19 ta), Amudaryo tumanida 15 ta bo'lib, 19 taga (2016 y. - 34 ta), Chimboy tumanida 11 ta bo'lib, 2 taga (2016 y. - 13 ta), Ellikqal'a tumanida 8 ta bo'lib, 1 taga (2016 y. - 9 ta), Qorao'zak tumanida 7 ta bo'lib, 1 taga (2016 y. - 8 ta), Taxtakopir tumanida 5 ta bo'lib, 3 taga (2016 y. - 8 ta), Taxiotosh tumanida 4 ta bo'lib, 8 taga (2016 y. - 12 ta), Kegeyli tumanida 3 ta bo'lib, 5 taga (2016 y. - 8 ta), Shumanay tumanida 3 ta bo'lib, 2 taga (2016 y. - 5 ta), Nukus tumanida 2 ta bo'lib, 2 taga (2016 y. - 4 ta), Muynoq tumanida 1 ta bo'lib, 4 taga (2016 y. - 5 ta) kamayishiga erishilgan.

Jinoyat sodir etishda ishtirok etgan xotin-qizlar soni jami 278 nafarni tashkil etib, 148 nafarga kamaygan.

Joriy yil 10 oy yakuni bilan hisobda turgan uzoq muddatga ketgan xotin-qizlar soni 5894 nafarni, qaytib kelgan xotin-qizlar 4967 nafarni (ketganlarning 75%ini) tashkil etadi.

Ko'rib chiqildi:

 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)